

YENGIL AVTOMOBILLAR TEXNIK EKSPLOATATSIYASINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

Qo'chqorov Isroiljon Tavakkal o'g'li

Andijon davlat texnika instituti "Avtomobilsozlik va transport" kafedrası assistenti

e-mail: isroilkuchkorov11@gmail.com

Oqboyev Sanjar Vaxobjon o'g'li

Qaynarov Faxriyor Atxamjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15310532>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi yangil avtomobillarni ekspluatatsiya qilish jarayonlari, bu jarayondagi muhim omillar, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi texnik va tashkiliy jihatlar yoritilgan. Avtomobillarni muntazam texnik xizmat ko'rsatish, diagnostika, profilaktika va ta'mirlash orqali ularning xizmat muddati, yoqilg'i tejamlorligi, ekologik xavfsizligi hamda harakatlanish xavfsizligi oshiriladi.

Kalit so'zlar: yangil avtomobillar, texnik ekspluatatsiya, texnik xizmat ko'rsatish, diagnostika, avtotransport vositalari, ekspluatatsion xususiyatlar, ta'mirlash texnologiyasi, texnik holat nazorati, energiya samaradorligi, avtomobil texnik xavfsizligi.

Kirish: Hozirgi kunda yangil avtomobillar kundalik hayotda keng qo'llanilmoqda. Transport vositalarining ekspluatatsiya samaradorligi ko'p jihatdan ularning texnik holati, xizmat ko'rsatish sifati va foydalanuvchining e'tiboriga bog'liq. Shu sababli avtomobilni ekspluatatsiya qilish texnologiyasini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini taklif etish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism: Yangil avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi deganda, ularni harakatda xavfsiz va samarali foydalanish uchun bajariladigan barcha chora-tadbirlar tushuniladi. Bunga texnik xizmat ko'rsatish (THK), joriy va kapital ta'mirlash, diagnostika, texnik nazorat va boshqa profilaktik ishlar kiradi.

Texnik ekspluatatsiyaning asosiy maqsadi – avtomobilning ishlashga tayyor holatini saqlash, uning buzilish oldini olish va xizmat muddatini uzaytirishdir. Ekspluatatsiyada quyidagi bosqichlar ajratiladi:

1. Kundalik xizmat ko'rsatish.
2. Davriy texnik xizmat ko'rsatish (1-darajali va 2-darajali).
3. Maxsus ta'mir va rejalashtirilgan diagnostikalar.

Texnik xizmat ko'rsatish tartibi ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan bo'lib, har bir avtomobil modeli uchun o'ziga xos bo'ladi. Masalan, dvigatel yog'i almashinuvi, filtrlarni tozalash yoki almashtirish, tormoz suyuqligi holatini nazorat qilish, shinalar bosimini tekshirish va h.k. ishlari avtomobilning ishlash muddatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yangil avtomobillar ekspluatatsiyasi jarayonida uchraydigan asosiy nosozliklar

1-jadval

№	Nosozlik turi	Uchrash tezligi (%)	Tizimga ta'siri	Eslatma
1	Dvigatel ishidagi uzilishlar	20–25%	Yoqilg'i sarfini oshiradi, tortish kuchi pasayadi	Yuqori harorat, yonilg'i aralashmasi muhim

2	Tormoz tizimi nosozligi	15–20%	Harakat xavfsizligiga jiddiy xavf tugʻdiradi	Tormoz suyuqligi, kolodkalar holati
3	Elektr tizimi nosozliklari	10–15%	Yoritish, dvigatel ishlashi, signal tizimi	Akkumulyator, generatordan kelib chiqadi
4	Transmissiya/rul boshqaruvi	10% gacha	Avtomobil boshqaruvchanligi yomonlashadi	Moylash darajasi, detal yeyilishi
5	Sovutish tizimidagi nosozliklar	5–10%	Dvigatel qizib ketadi, texnik xavf oshadi	Radiator, suv nasosini tekshirish zarur

Avtomobillarning ekspluatatsiyasi faqat texnik jihatlardan iborat emas. Bu jarayonda tashkiliy masalalar ham muhim rol oʻynaydi. Jumladan, ekspluatatsiyani rejalashtirish, xizmat koʻrsatish punktlarini toʻgʻri joylashtirish, texnik mutaxassislarni tayyorlash darajasi, ehtiyot qismlar zaxirasining mavjudligi va boshqalar.

Xulosa: Yengil avtomobillarni texnik ekspluatatsiyasi ularning uzoq va samarali xizmat qilishini taʼminlovchi asosiy omillardan biridir. Toʻgʻri tashkillashtirilgan texnik xizmat koʻrsatish, texnik holatni oʻz vaqtida aniqlovchi diagnostika usullari va texnologik yondashuvlar yordamida avtomobilning ishlash samaradorligi, xavfsizligi va ekologik koʻrsatkichlari yaxshilanadi. Bu esa avtomobil transportining zamonaviy jamiyatdagi oʻrnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov T.O. *Avtomobil transporti vositalarining texnik ekspluatatsiyasi*. – Toshkent: OʻzMU nashriyoti, 2018. – 312 bet.
2. Kholmiraev J., Kuchkorov I., Kakhkharov A. Determining the need for spare parts for special vehicles operating at airports //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 208-211.
3. Tavakkal oʻg, Q. C. I., IlhomjonoʻgʻLi, S. M., & Qayumjon oʻgʻLi, A. S. (2022). Yer Osti Quvurlariga Grunt Bosimi. *Bir Jinsli Grunt da Joylashgan Quvurga Gruntning O 'Rtacha Vertikal Bosimi*. *Новости Образования: Исследование в Ххи Веке*, 1(5), 287-292.